

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.FM.55.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

RAXIMOV ILXAM DAVRONBEKOVICH

**YUKLANGAN NOCHIZIQLI EVOLYUTION TENGLAMALARNI
YECHISHNING TO‘G‘RI VA TESKARI USULLARI**

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Urganch – 2022

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy
(PhD) on physical-mathematical sciences**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам**

Raximov Pxam Davronbekovich

Yuklangan nochiziqli evolyutsion tenglamalarni yechishning to‘g‘ri va
teskari usullari 3

Rakhimov Ikham Davronbekovich

Direct and inverse methods for solving loaded nonlinear evolution
equations 25

Рахимов Илхам Давронбекович

Прямые и обратные методы решения нагруженных нелинейных
эволюционных уравнений 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

List of published works 50
Список опубликованных работ

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.FM.55.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

RAXIMOV ILXAM DAVRONBEKOVICH

**YUKLANGAN NOCHIZIQLI EVOLYUTION TENGLAMALARNI
YECHISHNING TO‘G‘RI VA TESKARI USULLARI**

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Urganch – 2022

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/FM710 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Urganch davlat universitetida bajarildi.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (резюме)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ik-mat.urdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Urazboev Gayrat Urazaliyevich
fizika-matematika fanlari doktori

Rasmiy opponentlar:

Baltaeva Umida Ismailovna
fizika-matematika fanlari doktori

Mamedov Qudrat Allamovich
fizika-matematika fanlari nomzodi

Yetakchi tashkilot:


Samarqand davlat universiteti


Dissertatsiya himoyasi Urganch davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.FM.55.01 raqamli Ilmiy kengashning 2022 yil 24 sentabr soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 220100, Urganch sh., H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-66-11; faks: (99862) 224-67-00; e-mail: ik-mat.urdu@umail.uz).


Dissertatsiya bilan Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (D-618-raqam bilan ro'yhatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch sh., H. Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-66-11).

Dissertatsiya avtoreferati 2022 yil «13» sentabr kuni tarqatildi.
(2022 yil «13» sentabr dagi 1 raqamli reestr bayonnomasi).




B.I. Abdullayev
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d.


A.A. Reyimberganov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.n.


S.A. Imomkulov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon miqyosida olib borilayotgan ko‘plab ilmiy-amaliy tadqiqotlar, ba’zi hollarda xususiy hosilali nochiziqli differensial tenglamalarni ifodalovchi matematik modellar bilan tavsiflanadi. Ushbu turdagi nochiziqli differensial tenglamalar orasida maxsus yechimlarga ega tenglamalar sinfi, solitonlar alohida ajralib turadi. Solitonlar nazariyasida nochiziqli tenglamalar juda muhim o‘rin kasb etadi, masalan, Korteveg-de Friz tenglamasi, nochiziqli Shredinger tenglamasi, modifitsirlangan Korteveg-de Friz tenglamasi, shular jumlasidandir. Bu kabi tenglamalar kvant mexanikasi, nochiziqli optika, chuqur suvdagi to‘lqinlar nazariyasini o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi. Shu boisdan, nochiziqli Shredinger tenglamasi, Korteveg-de Friz tenglamasi va modifitsirlangan Korteveg-de Friz tenglamasini integrallash masalasi zamonaviy matematik fizikaning muhim vazifalaridan biri bo‘lib kelmoqda.

Hozirgi kunda jahonda nochiziqli to‘lqinlar nazariyasidagi izlanishlar, jumladan, egiluvchan trubalarda suyuqliklarning harakatlari, optik solitonlar telekommunikatsion texnologiyalar sohasida qo‘llanila boshladi. Haqiqiy fizik sistemalar klassik tenglamalar modifikatsiyalaridan biri bo‘lgan moslangan manbali tenglamalar bilan xarakterlanadi. Bundan tashqari, fizik sistemalarga ta’sir etuvchi kuchlar faqat vaqtning ma’lum bir davri mobaynida chegaralangan bo‘ladi, shuning uchun, haqiqiy modellar fazoviy o‘zgaruvchilar bo‘yicha ma’lum bir funksiyalar sinfidagi tenglamalarni o‘rganishga keltiriladi. Nochiziqli optika, plazma fizikasi, gidrodinamika va boshqa sohalarda moslangan manbali va yuklangan nochiziqli evolyutsion tenglamalarni o‘rganish fanning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan moslangan manbali va yuklangan nochiziqli Shredinger tenglamasi va yuklangan Korteveg-de Friz tenglamasi va modifitsirlangan Korteveg-de Friz tenglamasini o‘rganish maqsadli ilmiy tadqiqotlardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda ilmiy va amaliy tatbiqqa ega bo‘lgan fundamental fanlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, nochiziqli to‘lqinlar nazariyasi, differensial operatorlarning spektral nazariyasi va matematik fizika masalalarini o‘rganishga e’tibor kuchaydi. Buning natijasida to‘g‘ri va teskari masalalar usuli yordamida matematik fizikaning nochiziqli evolyutsion tenglamalarini to‘la integrallashda salmoqli natijalarga erishildi. Matematik fizika va ushbu sohaning zamonaviy usullari sohasida xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish asosiy vazifa va yo‘nalish etib belgilandi¹. Ushbu qarorlar ijrosini ta’minlash maqsadida sochilish nazariyasining to‘g‘ri va teskari masala usuli va to‘g‘ri usullar yordamida moslangan manbali nochiziqli tenglamalarni, shuningdek, yuklangan nochiziqli tenglamalarni integrallashni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi

¹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 292-sonli qarori.

to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 27-apreldagi PQ-3682-son "Innovasion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Ushbu tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. "Matematika, mexanika va informatika" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarildi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. 1967 yilda C.S. Gardner, J.M. Grin, M. Kruskal va R. Miura tomonidan nochiziqli Korteveg-de Vries tenglamasi uchun qo'yilgan Koshi masalasining yechimi teskari masala usulidan foydalanib topilgan. P. Laks sochilish nazariyasining teskari masalasi usuli universal xarakterga ega ekanligini ko'rsatgan. Bu borada keyingi muhim natija 1972 yil V.E. Zaxarov va A.B. Shabat nochiziqli Shredinger tenglamasiga qo'yilgan Koshi masalasini Dirak operatori uchun sochilish nazariyasining to'g'ri va teskari masala usulidan foydalanib integrallashi bo'ldi. V.E.Zaxarov va A.B.Shabat ishlarining g'oyasidan foydalanib, M.Vadati modifitsirlangan Korteveg-de Vries tenglamasini yechishga muvaffaq bo'lgan. V.K. Melnikov nochiziqli evolyutsion tenglamalarga moslangan manba tushunchasini kiritadi va 1988 yilda moslangan manbali Korteveg-de Vries tenglamasi teskari masala usulidan foydalanib integrallash algoritmini ko'rsatib beradi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, J. Leon va A. Latifiyning ishlarida moslangan manbali Korteveg-de Friz tenglamasining fizik ma'nolari keltirilgan. A.B. Xasanov va G.U. Urazboev moslangan manbali Korteveg-de Friz tenglamasi, modifitsirlangan Korteveg-de Friz tenglamasi, nochiziqli Shredinger tenglamalarini sin-Gordon "tez kamayuvchi" funksiyalar sinfida sochilish nazariyasining teskari masala usulidan foydalanib integrallaydilar. A.B. Xasanov, A.A. Reyimberganov va boshqalarning ishlarida esa moslangan manbali Shredinger tipidagi tenglamalar o'rganilgan.

Bundan tashqari, R. Hirota tomonidan Korteveg-de Friz tenglamasi, modifitsirlangan Korteveg-de Friz va nochiziqli Shredinger tenglamalarining soliton yechimlarini topish algoritmi berilgan. Hirota to'g'ri usuli yordamida Y. L. Sun, W.X. Ma, J.P. Yu, A. M. Wazwaz, Y. Ye, L. Wang, Z. Chang, J. He, M. Gurses, A. Pekcan, W.X. Ma, S. Kumar, B. Mohan, Y. Zhang, L. Jin, C.T. Lee, C.C. Lee, F.You, J. Zhang, L. Li, C. Duan, F. Yular nochiziqli evolyutsion tenglamalarning aniq yechimlarini topganlar.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Urganch davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq F-4-61 "Moslangan manbali noxiziqli evolyutsion tenglamalarni teskari masala usulida integrallash" (2012-2016 yy.) ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi differensial operatorlar uchun sochilish nazariyasining teskari masala yordamida tez kamayuvchi funksiyalar sinfida yuklangan noxiziqli Shredinger tenglamasining va to'g'ri usullar yordamida moslangan manbali noxiziqli Shredinger tenglamasi, yuklangan Korteveg-de Friz tenglamasi, yuklangan modifisirlangan Korteveg-de Friz tenglamasining yechimlarini topishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tez kamayuvchi funksiyalar sinfida yuklangan noxiziqli Shredinger tenglamasiga qo'yilgan Koshi masalasining to'la integrallanuvchi bo'lishini isbotlash;

tez kamayuvchi funksiyalar sinfida yuklangan noxiziqli Shredinger tenglamasiga qo'yilgan Koshi masalasining yechimining yagonaligini isbotlash;

to'g'ri usullar yordamida tez kamayuvchi funksiyalar sinfida moslangan manbali noxiziqli Shredinger tenglamasining aniq yechimlarini topish;

to'g'ri usullar yordamida tez kamayuvchi funksiyalar sinfida yuklangan noxiziqli Shredinger tenglamasining aniq yechimlarini topish;

to'g'ri usullar yordamida yuklangan Korteveg-de Friz tenglamasining aniq yechimlarni topish;

to'g'ri usullar yordamida yuklangan modifisirlangan Korteveg-de Friz tenglamasining aniq yechimlarni topish.

Tadqiqotning ob'ekti yuklangan noxiziqli Shredinger tenglamasi, moslangan manbali noxiziqli Shredinger tenglamasi, yuklangan Korteveg-de Friz, yuklangan modifisirlangan Korteveg-de Friz tenglamalaridan iborat.

Tadqiqotning predmeti Dirak operatori uchun sochilish nazariyasining teskari masalasini, Hirota to'g'ri usulini va (G' / G) - usulini noxiziqli evolyutsion tenglamalarni integrallashga qo'llash usullaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada matematik analiz, matematik fizika, differensial operatorlarning spektral nazariyasi, funktsional analiz va kompleks o'zgaruvchili funksiyalar nazariyasidan, shuningdek, differensial tenglamalarni yechish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tez kamayuvchi funksiyalar sinfida yuklangan noxiziqli Shredinger tenglamasiga qo'yilgan Koshi masalasi yechimining yagonaligi va to'la integrallanuvchi bo'lishi isbotlangan;

sochilish nazariyasining asosiy integral tenglamasining sonli yechimlari topilgan;

Hirota to'g'ri usuli yordamida moslangan manbali va yuklangan noxiziqli Shredinger tenglamalarining soliton yechimlari topilgan;

yuklangan Korteveg-de Friz tenglamasi va modifisirlangan Korteveg-de Friz tenglamasining aniq yechimlari topilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yuklangan noxiziqli Shredinger tenglamasiga qo'yilgan Koshi masalasini, moslangan manbali noxiziqli Shredinger tenglamasi, yuklangan Korteveg-de Friz va yuklangan modifisirlangan Korteveg-de Friz tenglamasining yechimlarini topish algoritmlari ishlab chiqilgan;

yuklangan Korteveg-de Friz va yuklangan modifisirlangan Korteveg-de Friz tenglamalari yechimlarining fazoviy o'zgaruvchilar bo'yicha analitikligi to'g'risidagi natijalar sonli hisoblashlarda qo'llanilishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi matematik fizikaning zamonaviy usullari, matematik tahlil usullaridan usullaridan foydalanilgani hamda matematik mulohazalarning qat'iyiligi bilan asoslangan hamda hisoblash tajribalari natijalari orqali taqqoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiyaning ilmiy ahamiyati olingan ilmiy natijalardan chiziqli operatorlarning spektral nazariyasi, gidrodinamika va kvant fizikasida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati olingan ilmiy natijalardan matematik fizikada noxiziqli evolyutsion tenglamalarni integrallashga tatbiq qilish bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yuklangan noxiziqli evolyutsion tenglamalarni yechishning to'g'ri va teskari usullari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Gelfand-Levitan-Marchenko integral tenglamalar sistemasini sonli yechish algoritmlaridan APVV-18-0308-raqamli grant loyihasida moslangan manbali noxiziqli Shredinger tenglamasini sonli yechishda qo'llanilgan (Slovakiyaning Komenskiy nomidagi Universitetning 2022 yil 24 iyundagi ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo'llanilishi chiziqsiz evolyutsion tenglamalarni integrallash imkonini bergan.

Tez kamayuvchi funksiyalar sinfida yuklangan noxiziqli Shredinger tenglamasiga qo'yilgan Koshi masalasi yechimining yagonaligidan MTM2016-75140-P "Oddiy va funksional differensial tenglamalar" grant loyihasida Shredinger tenglamasiga qo'yilgan Koshi masalasini yechishda qo'llanilgan (Ispaniyaning Santiago de Compostela universitetining 2022 yil 27 iyundagi ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo'llanilishi noxiziqli Shredinger tenglamasining sonli-analitik yechimlarini topish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalarini asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 4 ta xorijiy va 4 ta respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzulishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 81 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyligi asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, ob‘ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Dirak operatori uchun sohilish nazariyasi va nochiziqli evolyutsion tenglamalar uchun to‘g‘ri usullar”** deb nomlangan birinchi bobida Dirak operatori uchun teskari spektral masala va evolyutsion tenglamalarni yechishni to‘g‘ri usullari o‘rganilgan.

Butun o‘qda quyidagi tenglamalar sistemasini ko‘rib chiqamiz

$$Lv = \xi v, \quad x \in R, \quad (1)$$

bu yerda $v = (v_1, v_2)^T$ - vektor funksiya va

$$L = i \begin{pmatrix} \frac{d}{dx} & -u(x) \\ -u^*(x) & -\frac{d}{dx} \end{pmatrix}.$$

Bu yerda $u(x)$ potensial quyidagi shartni qanoatlantiradi

$$\int_{-\infty}^{\infty} (1 + |x|) |u(x)| dx < \infty. \quad (2)$$

(1) tenglamalar sistemasining (2) shartni qanoatlantiruvchi quyidagi asimptotikaga ega yechimlari mavjud va bu yechimlar Yost yechimlari deyiladi.

$$\varphi(x, \xi) \sim \begin{pmatrix} 1 \\ 0 \end{pmatrix} e^{-i\xi x}, \quad \bar{\varphi}(x, \xi) \sim \begin{pmatrix} 0 \\ -1 \end{pmatrix} e^{i\xi x}, \quad x \rightarrow -\infty, \quad (3)$$

$$\psi(x, \xi) \sim \begin{pmatrix} 0 \\ 1 \end{pmatrix} e^{-i\xi x}, \quad \bar{\psi}(x, \xi) \sim \begin{pmatrix} 1 \\ 0 \end{pmatrix} e^{i\xi x}, \quad x \rightarrow \infty. \quad (4)$$

($\bar{\varphi}$ ($\bar{\psi}$) funksiya φ (ψ) funksiyaning kompleks qo‘shmasi). Demak haqiqiy $\xi \in (-\infty, \infty)$ larda $\{\varphi, \bar{\varphi}\}$ va $\{\psi, \bar{\psi}\}$ vektor funksiyalar juftligidan tashkil topgan Vronskiy determinant noldan farqliligidan bu vektor funksiyalar juftligi (1) tenglamalar sistemasining chiziqli erkli yechimlar juftligi bo‘ladi. Shunga ko‘ra, ushbu

$$\begin{cases} \phi = a(\xi)\bar{\psi} + b(\xi)\psi, \\ \bar{\phi} = -\bar{a}(\xi)\psi + \bar{b}(\xi)\bar{\psi}, \end{cases} \quad (5)$$

munosabat o‘rinli bo‘ladi. Bu yerda

$$a(\xi) = W\{\varphi, \psi\} \equiv \varphi_1\psi_2 - \varphi_2\psi_1. \quad (6)$$

Haqiqiy ξ lar uchun quyidagi tenglik o‘rinli

$$a(\xi)\bar{a}(\xi) + b(\xi)\bar{b}(\xi) = 1. \quad (7)$$

$a(\xi)$ va $b(\xi)$ funksiyalar $\text{Im}\xi = 0$ da uzluksiz funksiyalar va $|\xi| \rightarrow \infty$ da

$a(\xi) = 1 + O\left(\frac{1}{|\xi|}\right)$ va $b(\xi) = O\left(\frac{1}{|\xi|}\right)$ asimtotikaga ega. Bundan tashqari $a(\xi)$

funksiya $\text{Im}\xi > 0$ yuqori yarim tekislikka analitik davom qiladi. Yuqori yarim tekislikda cheklita ξ_k ($k = 1, 2, \dots, N$) nollarga ega va L operatorning xos qiymati bo‘ladi. Shuni aytib o‘tishimiz kerakki

$$h_n(x) = \frac{\frac{d}{d\xi}(\varphi - C_n\psi)\Big|_{\xi = \xi_n}}{\dot{a}(\xi_n)}, \quad (8)$$

vektor-funksiya $Lh_n = \xi_n h_n$ tenglamalar sistemasining yechimi bo‘ladi. (6) tenglikni inobatga olsak biz $\text{Im}\xi > 0$ da quyidagi asimtotikaga

$$\begin{aligned} \psi &\sim a(\xi) \begin{pmatrix} 0 \\ 1 \end{pmatrix} e^{i\xi x}, \quad x \rightarrow -\infty, \\ \varphi &\sim a(\xi) \begin{pmatrix} 1 \\ 0 \end{pmatrix} e^{-i\xi x}, \quad x \rightarrow \infty, \end{aligned}$$

ega bo‘lamiz. Ushbu asimptotik formulalardan foydalanib, $h_n(x)$ yechimlar uchun asimptotik formulalarni olishimiz mumkin

$$h_n \sim -C_n \begin{pmatrix} 0 \\ 1 \end{pmatrix} e^{i\xi_n x}, \quad x \rightarrow -\infty, \quad h_n \sim \begin{pmatrix} 1 \\ 0 \end{pmatrix} e^{-i\xi_n x}, \quad x \rightarrow \infty. \quad (9)$$

Shunga ko‘ra

$$W\{\varphi_n, h_n\} \equiv \varphi_{n1}h_{n2} - \varphi_{n2}h_{n1} = -C_n, \quad (10)$$

bu yerda $\varphi_n = \varphi(x, \xi_n)$.

1-tarif. $\{r(\xi) \equiv \frac{b(\xi)}{a(\xi)}, \xi_k, C_k\}$, $\xi \in R^1$, $\text{Im}\xi_k > 0$, $k = \overline{1, N}$ to‘plamga (1) tenglamalar sistemasi sochilish nazariyasining berilganlari deyiladi.

2-tarif. (1) tenglamalar sistemasi uchun sochilish nazariyasining to‘g‘ri masalasi deb $u(x)$ potensial berilgan holda sochilish nazariyasining berilganlarni topish masalasiga aytiladi.

3-tarif. Sochilish nazariyasini teskari masalasi deb sochilish nazariyasi berilganlari yordamida (1) tenglamalar sistemasining $u(x)$ potensialini aniqlash masalasiga aytiladi.

ψ va $\bar{\psi}$ Yost yechimlari uchun ixtiyoriy $\xi \in R$ larda quyidagi

$$\psi = \begin{pmatrix} 0 \\ 1 \end{pmatrix} e^{i\xi x} + \int_x^\infty K(x, s) e^{i\xi s} ds, \quad (11)$$

$$\bar{\Psi} = \begin{pmatrix} 1 \\ 0 \end{pmatrix} e^{-i\xi x} + \int_x^\infty \bar{K}(x, s) e^{-i\xi s} ds, \quad (12)$$

integral tasvir o‘rinli, bunda $K(x, s) = \begin{pmatrix} K_1(x, s) \\ K_2(x, s) \end{pmatrix}$.

Bu yerda yadrolar potensial bilan quyidagi tarzda bog‘langan

$$u(x) = -2K_1(x, x). \quad (13)$$

$K(x, s)$ va $\bar{K}(x, s)$ yadrolar $y > x$ bo‘lganda ushbu

$$\bar{K}(x, y) + \begin{pmatrix} 0 \\ 1 \end{pmatrix} F(x + y) + \int_x^\infty K(x, s) F(s + y) ds = 0,$$

$$K(x, y) - \begin{pmatrix} 1 \\ 0 \end{pmatrix} \bar{F}(x + y) - \int_x^\infty \bar{K}(x, s) \bar{F}(s + y) ds = 0,$$

Gelfand-Levitan-Marchenko integral tenglamalar sistemasini qanoatlantiradi.

Bu yerda

$$F(x) = \frac{1}{2\pi} \int_{-\infty}^\infty \frac{b(\xi)}{a(\xi)} e^{i\xi x} d\xi - i \sum_{j=1}^N C_j e^{i\xi_j x}, \quad \bar{F}(x) = \frac{1}{2\pi} \int_{-\infty}^\infty \frac{\bar{b}(\xi)}{a(\xi)} e^{-i\xi x} d\xi + i \sum_{j=1}^N \bar{C}_j e^{-i\xi_j x}.$$

Birinchi bobning ikkinchi paragrafida noxiziqli evolyutsion tenglamalarni yechishning to‘g‘ri usullari yani Hirota to‘g‘ri usuli va (G'/G) - usuli haqida zaruriy ma‘lumotlar keltirilgan.

Quyidagi

$$F[u] = F(u, u_x, u_t, \dots) = 0$$

noxiziqli xususiy xosilali differensial tenglama berilgan bo‘lsin.

$$u = T[f(x, t, \dots), g(x, t, \dots)],$$

Quyidagi almashtirish yordamida xususiy xosilali differensial tenglamani Hirota D - operator yordamida bichiziqli forma ko‘rinishida yozib olamiz. Takitlash lozimkiy, Kortevag-de Friz tenglamasi kabi ba‘zi xususiy xosilali differensial tenglamalar bitta bichiziqli tenglama ko‘rinishida, modifisirlangan Kortevag-de Friz, noxiziqli Schredinger va boshqa shunga o‘xshash tenglamalarni bichiziqli tenglamalar sistemasi ko‘rinishida yozish mumkin.

4-tarif: $S : C^n \rightarrow C$ differensiullanuvchi funksiyalar fazosi bo‘lsin. $D : S \times S \rightarrow S$ Hirota operatori quyidagi ko‘rinishda

$$[D_x^{m_1} D_t^{m_2} \dots] \{f \bullet g\} = [(\partial_x - \partial_{x'})^{m_1} (\partial_t - \partial_{t'})^{m_2} \dots] f(x, t, \dots) \times g(x', t', \dots) \Big|_{x'=x, t'=t, \dots}, \quad (14)$$

aniqlangan, bu yerda $m_j, j = 1, 2, \dots$ musbat butun son.

D - operatorining qandaydir kombinatsiyasidan foydalanib, biz $F[u]$ tenglamaning bichiziqli formasini D - operatorining ko‘phadi sifatida yozishga harakat qilamiz. Biz bu ko‘phadni $P(D)$ bilan belgilaymiz.

5-tarif: Noxiziqli xususiy xosilali differensial tenglamalar quyidagi ko‘rinishda ifodalansa

$$\sum_{\alpha, \beta=1}^m P_{\alpha\beta}^{\eta}(D) f^{\alpha} f^{\beta} = 0, \quad \eta = 1, \dots, r \quad (15)$$

u holda bu tenglamalar m, r sonlari uchun Hirota bichizikli forma ko‘rinishda ifodalangan deyiladi.

1-tasdiq. $P(D)$ operatorga differensiallanuvchi f va g funksiyalar ta’sir qilsin. U holda quyidagi tenglik o‘rinli

$$P(D)\{f \cdot g\} = P(-D)\{f \cdot g\}. \quad (16)$$

2-tasdiq. $P(D)$ operatorga differensiallanuvchi f va $g = 1$ funksiyalar ta’sir qilsin. U holda quyidagi tenglik o‘rinli

$$P(D)\{f \cdot 1\} = P(\partial) f, \quad P(D)\{1 \cdot f\} = P(-\partial) f. \quad (17)$$

3-tasdiq. $P(D)$ operatorga eksponensial funksiyalar e^{θ_1} va e^{θ_2} ta’sir qilsin, bu yerda $\theta_j = k_j x + \dots r_j z + l_j y + \alpha_j$ va $k_j, \dots, r_j, l_j, \alpha_j$ ($j = 1, 2, \dots$). U holda quyidagi tenglik o‘rinli

$$P(D)\{e^{\theta_1} \cdot e^{\theta_2}\} = P(k_1 - k_2, \dots, r_1 - r_2, l_1 - l_2) e^{\theta_1 + \theta_2}. \quad (18)$$

1-natija. Noldan farqli a konstanta uchun $P(D)\{a \cdot a\} = 0$ o‘rinli bo‘lsa, u holda 3-tasdiqga asosan $P(0, 0, \dots, 0) = 0$ ega bo‘lamiz.

Izoh. $P(D)\{f \cdot f\}$ uchun quyidagi oddiy misollarni ko‘rib chiqmiz

$$D_x\{f \cdot f\} = f_x f - f f_x = 0,$$

$$D_t D_x^2\{f \cdot f\} = f_{xxt} f - f_{xx} f_t - f_{xt} f_x + f_x f_{xt} - f_{xt} f_x + f_x f_{xt} + f_t f_{xx} - f f_{xxt} = 0.$$

Ushbu paragrafda (G' / G) - usulining asosiy qadamlari keltirib o‘tilgan.

Bizga quyidagi nochizikli xususiy xosilali differensial tenglama berilgan bo‘lsin

$$F(u, u_t, u_x, u_{tt}, u_{xx}, u_{xt}, \dots) = 0, \quad (19)$$

bu yerda $u = u(x, t)$ noma’lum funksiya, F - u va uning xususiy xosilalariga bog‘liq bo‘lgan nochizikli funksiya.

1-qadam. $u(x, t)$ funksiya uchun quyidagi

$$u(x, t) = u(\xi), \quad \xi = kx + \Omega(t), \quad (20)$$

almashtirishdan foydalanamiz, bu yerga k - parametr, $\Omega(t)$ - uzluksiz funksiya.

Yechimning (20) almashtirishini inobatga olsak (19) tenglamani

$$P(u, u', u'', u''', \dots) = 0, \quad (21)$$

oddiy differensial tenglamaga keltirish imkonini beradi, bu yerda $u' = \frac{du(\xi)}{d\xi}$,

$$u'' = \frac{d^2 u(\xi)}{d\xi^2}, \quad u''' = \frac{d^3 u(\xi)}{d\xi^3}, \quad \dots$$

2-qadam. Faraz qilaylik, (21) tenglamaning yechimini $\left(\frac{G'}{G}\right)$ ko‘phad

ko‘rinishida ifodalash mumkin:

$$u(\xi) = \sum_{j=0}^m a_j \left(\frac{G'}{G} \right)^j, \quad (22)$$

bu yerda G' funksiya $G(\xi)$ funksiyaning ξ bo'yicha xosilasi, a_j ($j=0,1,2,\dots,m$) - keyin aniqlanadigan konstantalar, m - musbat butun son, $G = G(\xi)$ funksiya quyidagi oddiy differensial tenglamaning yechimi

$$G'' + \lambda G' + \mu G = 0, \quad (23)$$

bu yerda λ va μ ixtiyoriy konstantalar.

3-qadam. (20) funksiyaning (21) tenglamaga qo'yib, ikkinchi tartibli chiziqli oddiy differensial tenglama (23) yordamida va (G'/G) bir xil tartibli hadlarni yig'ish orqali (G'/G) nisbatan ko'phad ko'rinishida tenglamaga ega bo'lamiz. (G'/G) ning bir xil darajasi oldidagi koeffitsientlarini nolga tenglashtirish orqali $\Omega(t)$, a_j , $j=1,2,\dots,m$ larda nisbatan tenglamalar sistemasiga ega bo'lamiz.

4-qadam. $\Omega(t)$, a_j , $j=1,2,\dots,m$ larni topib, (22), (23) tengliklarni inobatga olib (19) xususiy xosilali differensial tenglamaning aniq yechimini topamiz.

Dissertatsiyaning "**Teskari masala usuli yordamida yuklangan nochiziqli Shredinger tenglamasini integrallash**" deb nomlangan ikkinchi bobida Dirak operatori yordamida tez kamayuvchi funksiyalar sinfida yuklangan nochiziqli Shredinger tenglamasini to'la integrallanuvchiligi isbotlangan va sochilish nazariyasining asosiy integral tenglamasi Gelfand-Levitan-Marchenko integral tenglamasining sonli yechimlari topilgan.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafida yuklangan nochiziqli Shredinger tenglamasi "tez kamayuvchi" funksiyalar sinfida integrallangan.

Ushbu

$$iu_t + 2|u|^2 u + u_{xx} - i\gamma(t)(u(0,t) + u^*(0,t))u_x = 0, \quad (24)$$

yuklangan nochiziqli Shredinger tenglamasi uchun qo'yilgan

$$u(x,0) = u_0(x), \quad (25)$$

Koshi masalasini ko'rib chiqamiz. Bu yerda $\gamma(t)$ - nolga aylanmaydigan ixtiyoriy funksiya, $u^*(0,t)$ funksiya $u(0,t)$ funksiyaning kompleks qo'shmasi.

Boshlang'ich shartdagi $u_0(x)$ funksiya quyidagi xossalarga ega bo'lsin:

$$1. \int_{-\infty}^{\infty} (1+|x|)|u_0(x)|dx < \infty;$$

$$2. L(0)y \equiv i \begin{pmatrix} \frac{d}{dx} & -u_0(x) \\ -u_0^*(x) & -\frac{d}{dx} \end{pmatrix} \begin{pmatrix} \varphi_1 \\ \varphi_2 \end{pmatrix} = \xi \begin{pmatrix} \varphi_1 \\ \varphi_2 \end{pmatrix} \quad (26)$$

tenglama N ta oddiy xos qiymatga ega bo'lsin.

Bu paragrafda (24)-(26) masalaning ushbu $u(x,t)$ yechimi quyidagi

$$\int_{-\infty}^{\infty} \left((1+|x|)|u_0(x)| + \sum_{j=1}^3 \left| \frac{\partial^j u(x,t)}{\partial x^j} \right| \right) dx < \infty, \quad t \geq 0$$

funksiyalar sinfida mavjud deb hisoblaniladi va bu yechimni topish usulini keltirib chiqarish talab qilinadi. Shu maqsadda $L(t)$ operator uchun sochilish nazariyasi berilganlarining vaqt bo'yicha evolyutsiyalari aniqlanadi. Olingan asosiy natija quyidagi teoremlarda ifodalangan.

1-teorema. Agar $u(x,t)$ funksiya (24)-(26) masalaning yechimi bo'lsa, u holda u yagona.

2-teorema. Agar $u(x,t)$ funksiya (24)-(26) masalaning yechimi bo'lsa, u holda $L(t)$ operatorning sochilish nazariyasi berilganlari uchun quyidagi munosabatlar o'rinli:

$$\frac{dr^+}{dt} = \left(4i\xi^2 - 2\xi\gamma(t)(u(0,t) + u^*(0,t)) \right) r^+, \quad \text{Im } \xi = 0,$$

$$\frac{dC_n}{dt} = \left(4i\xi_n^2 + 2i\xi_n\gamma(t)(u(0,t) + u^*(0,t)) \right) C_n,$$

$$\frac{d\xi_n}{dt} = 0, \quad n = 1, 2, 3, \dots, N.$$

Olingan munosabatlar $L(t)$ operatorning sochilish nazariyasi berilganlarini to'liq ifodalaydi va ular yordamida (24)-(26) masalaning yechimi teskari masala usuli yordamida topiladi.

Quyida keltirilgan algoritm yordamida yechimni topishimiz mumkin. Bizga yuqoridagi masalaning shartlarini qanoatlantiruvchi $u_0(x)$ berilgan bo'lsin.

1. Potensialni $u_0(x)$ bo'lgan $L(0)$ operator uchun to'g'ri masalani yechib, $\{r(\xi, 0), \xi_1(0), \xi_2(0), \dots, \xi_N(0), C_1(0), C_2(0), \dots, C_N(0)\}$ sochilish nazariyasining berilganlarini topib olamiz.
2. 2-teoremaga ko'ra, sochilish nazariyasining berilganlarini vaqt bo'yicha evolyutsiyasini $\{r(\xi, t), \xi_1(t), \xi_2(t), \dots, \xi_N(t), C_1(t), C_2(t), \dots, C_N(t)\}$, $t > 0$ aniqlaymiz.
3. Gelfand-Levitan-Marchenko integral tenglamasiga asoslangan teskari masala usulidan foydalanib, $u(x,t)$ potensialni $\{r(\xi, t), \xi_1(t), \xi_2(t), \dots, \xi_N(t), C_1(t), C_2(t), \dots, C_N(t)\}$ yordamida tiklaymiz.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafida sochilish nazariyasining asosiy integral tenglamasi Gelfand-Levitan-Marchenko integral tenglamasining sonli yechimlarini topish ko'rsatilgan.

Ushbu

$$\begin{cases} \bar{K}_2(x, y) + \int_0^\infty K_1(x, s+x) F(s+x+y) ds = 0, \\ -K_1(x, y) + \bar{F}(x+y) + \int_0^\infty \bar{K}_2(x, s+x) \bar{F}(s+x+y) ds = 0, \end{cases} \quad (27)$$

Gelfand-Levitan-Marchenko integral tenglamasining Nystrom usulidan foydalanib sonli yechimlarini topishni ko'rib chiqamiz, bu yerda

$$F(x) = \frac{1}{2\pi} \int_{-\infty}^{\infty} R(\xi) e^{i\xi x} d\xi - i \sum_{k=1}^N c_k e^{i\xi_k x}. \quad (28)$$

(27) integral tenglamalar sistemasining yadrosi $s + x$ and $s + x + y$ larga bog‘liq, shuning uchun tugun nuqtalarni quyidagi ko‘rinishda yozib olamiz

$$\begin{aligned} s_j &= (j-1)\tau, \quad \beta_{k+j} = x_k + s_j, \quad \alpha_{k+j+p} = \beta_{k+j} + \beta_{p+k}, \\ \alpha_{k+p} &= x_k + \beta_{p+k}, \quad k = 1, 2, \dots, N_x, \quad j = 1, 2, \dots, N_y. \end{aligned} \quad (29)$$

Simpson kvadraturasi formulasini va (29) to‘r nuqtalarni inobatga olib biz (27) integral tenglamalar sistemasini algebraik tenglamalar sistemasini ko‘rinishida yozib olamiz:

$$\begin{cases} K_2^*(x_k, \beta_{k+p}) + \sum_{j=1}^{N_y} d_j K_1(x_k, \beta_{k+j}) F(\alpha_{k+j+p}) = 0, \\ \sum_{j=1}^{N_y} d_j K_2^*(x_k, \beta_{k+j}) F^*(\alpha_{k+j+p}) - K_1(x_k, \beta_{k+p}) = -F^*(\alpha_{k+p}), \end{cases} \quad (30)$$

bu yerda $\{d_i\}_{i=0}^{N_y} = \frac{\tau}{3} \{1, 4, 2, 4, 2, 4, \dots, 1\}$, τ - y bo‘yicha qadami.

(30) tenglamalar sistemasini matritsa ko‘rinishida quyidagicha yozishimiz mumkin

$$\begin{bmatrix} I_{N_y} & HD \\ H^*D & -I_{N_y} \end{bmatrix} \begin{bmatrix} k_2 \\ k_1 \end{bmatrix} = \begin{bmatrix} 0 \\ -f_{N_y} \end{bmatrix}, \quad (31)$$

bu yerda $D = \text{diag}\{d_j\}_{j=1}^{N_y}$, $I_{N_y} = \text{diag}\{1\}_{j=1}^{N_y}$,

$$H = (F(\alpha_{k+j+p}))_{p,j=1}^{N_y}, \quad f_{N_y} = (F(\alpha_{k+p}))_{p=1}^{N_y}, \quad (32)$$

va noma‘lum vektor funksiyalar

$$k_2 = (K_2(x_k, \beta_{k+p}))_{p=1}^{N_y}, \quad k_1 = (K_1(x_k, \beta_{k+p}))_{p=1}^{N_y}. \quad (33)$$

(31) algebraik tenglamalar sistemasini quyidagi shaklda ifodalash mumkin

$$\begin{cases} (DH^*DHD + D)k_1 = Df_{N_y}, \\ k_2 = -HDk_1, \end{cases}$$

bu yerda $DH^*DHD + D$ matritsa simmetrik shuning uchun tenglamalar sistemasini gradient usuli orqali yechish mumkin. H matritsa $N_y \times N_y$ o‘lchamli Hankel matritsasi, $(H)_{ij} = F(\alpha_{k+i+j})$. (13) va (33) inobatga olib $u(x)$ potensialni k_1 orqali ifodalash mumkin.

Dissertasiyaning “**Nochiziqli evolyutsion tenglamalarni yechishning to‘g‘ri usullari**” deb nomlangan uchinchi bobida moslangan manbali nochiziqli Shredinger tenglamasi va yuklangan nochiziqli Shredinger tenglamasining tez kamayuvchi funksiyalar sinfida soliton yechimlarini, yuklangan Kortevog-de Friz

va yuklangan modifisirlangan Kortevog-de Friz tenglamasining aniq yechimlarini to'g'ri usullar yordamida topish algoritmi keltirilgan.

Uchinchi bobning birinchi paragrafida moslangan manbali nochiziqli Shredinger tenglamasining tez kamayuvchi funksiyalar sinfida Hirota usuli yordamida soliton yechimlari topilgan.

Quyidagi

$$iu_t + 2|u|^2 u + u_{xx} = 2i \sum_{j=1}^N (\varphi_{1j}^2 - \bar{\varphi}_{2j}^2), \quad (34)$$

$$\begin{cases} \varphi_{1j,x} = i\xi_j \varphi_{1j} - u \varphi_{2j}, \\ \varphi_{2j,x} = -i\xi_j \varphi_{2j} + \bar{u} \varphi_{1j}, \quad j = 1, 2, \dots, N, \end{cases} \quad (35)$$

moslangan manbali nochiziqli Shredinger tenglamasini qaraymiz, bu yerda ξ_j $j = 1, 2, \dots, N$ xos qiymatlar.

Bu paragrafda (34)-(35) masalaning ushbu $u(x, t)$ yechimi quyidagi

$$\int_{-\infty}^{\infty} \left((1 + |x|) |u(x, t)| + \sum_{j=1}^2 \left| \frac{\partial^j u(x, t)}{\partial x^j} \right| \right) dx < \infty, t \geq 0 \quad (36)$$

funksiyalar sinfida mavjud deb hisoblaniladi va bu yechimni topish usulini keltirib chiqarish talab qilinadi. (35) sistemaning ξ_j $j = 1, 2, \dots, N$ xos qiymatlarga mos keluvchi $\Phi_j = (\varphi_{1j}, \varphi_{2j})^T$ xos vektorlari uchun quyidagi normallovchi shart o'rinli bo'lsin

$$\int_{-\infty}^{\infty} \varphi_{1j} \varphi_{2j} dx = \beta_j^2(t), \quad j = 1, 2, \dots, N. \quad (36')$$

bu yerda $\beta_j(t)$, $j = 1, 2, \dots, N$ oldindan berilgan uzluksiz funksiya.

Moslangan manbali nochiziqli Shredinger tenglamasining soliton yechimlarini Hirota usuli yordamida topishni ko'rib chiqamiz. Ushbu almashtirishlar

$$u = \frac{g}{f}, \quad \varphi_{1j} = \frac{p_j}{f}, \quad \varphi_{2j} = \frac{h_j}{f}, \quad j = 1, 2, \dots, N, \quad (37)$$

yordamida (34)-(35) masalani quyidagi bichiziqli forma ko'rinishida yozib olamiz

$$(iD_t + D_x^2) g \cdot f = 2i \sum_{j=1}^N (p_j^2 - \bar{h}_j^2), \quad (38)$$

$$D_x^2 f \cdot f = 2g \cdot \bar{g}, \quad (39)$$

$$\begin{cases} D_x p_j \cdot f = -i\xi_j p_j f + g h_j, \\ D_x h_j \cdot f = i\xi_j h_j f - \bar{g} p_j, \end{cases} \quad (40)$$

bu yerda \bar{g} va \bar{h} funksiyalar g va h funksiyalarning kompleks qo'shmasi, Hirota bichiziqli operatori quyidagi ko'rinishda aniqlangan

$$D_x^m D_t^n g(x,t) \cdot f(x,t) = \left(\frac{\partial}{\partial x} - \frac{\partial}{\partial x'} \right)^m \left(\frac{\partial}{\partial t} - \frac{\partial}{\partial t'} \right)^n g(x,t) f(x',t') \Big|_{x=x', t=t'}. \quad (41)$$

(38)-(40) tenglamalarni yechishda f , g , p_j va h_j funksiyalarni quyidagi ko‘rinishda izlaymiz:

$$f = 1 + \chi^2 f^{(1)} + \chi^4 f^{(2)} + \dots, \quad (42)$$

$$g = \chi g^{(1)} + \chi^3 g^{(2)} + \dots, \quad (43)$$

$$p_j = \chi p_j^{(1)} + \chi^3 p_j^{(2)} + \dots, \quad (44)$$

$$h_j = h_j^{(1)}, \quad (45)$$

bu yerda χ parametr. (42)-(45) funksiyalarni (38)-(40) tenglamalarga qo‘yish va χ ning bir xil darajali koeffitsientlarini nolga tenglashtirish orqali $f^{(k)}$, $g^{(k)}$, $p_j^{(k)}$ va $h_j^{(k)}$, ($k=1,2,\dots$) larga nisbatan tenglamalar sistemasiga ega bo‘lamiz. Ularni yechish va (37) almashtirishni inobatga olsak (34)-(35) masalaning yechimiga ega bo‘lamiz.

Moslangan manbali nochiziqli Shredinger tenglamasining bir soliton yechimini topish uchun f va g funksiyalarni quyidagi ko‘rinishda izlaymiz

$$g = \chi g^{(1)}, \quad f = 1 + \chi^2 f^{(1)}.$$

Yuqoridagi f va g funksiyalarni (39) tenglamaga qo‘llash va χ ning bir xil darajalarining koeffitsientlarini tenglashtirib, $f^{(1)}$ va $g^{(1)}$ ga nisbatan tenglamalar sistemasini yozib olamiz va ularni yechish orqali quyidagiga ega bo‘lamiz

$$g^{(1)} = e^{\eta_1}, \quad f^{(1)} = e^{\eta_1 + \bar{\eta}_1 + a_{11}}, \quad (46)$$

bu yerda $\eta_1 = k_1 x + \gamma_1(t)$, $a_{11} = \ln \frac{1}{(k_1 + \bar{k}_1)^2}$, k_1 - konstanta va $\gamma_1(t)$ uzluksiz funksiya. Keyin qadam p_1 va h_1 funksiyalarni topishdan iborat bo‘ladi. Buning uchun p_1 va h_1 funksiyalar

$$p_1 = \chi p_j^{(1)}, \quad h_1 = h_j^{(1)}$$

ko‘rinishda bo‘ladi. Yuqordagi p_1 va h_1 funksiyalarni (40) tenglamaga qo‘llash va χ ning bir xil darajalarining koeffitsientlarini tenglashtirib, p_1 va h_1 ga nisbatan tenglamalar sistemasini yozib olamiz va ularni yechish orqali quyidagiga ega bo‘lamiz

$$\begin{aligned} p_1^{(1)} &= e^{(k_1 + \bar{k}_1 - i\xi_1)x + \Omega_1(t)}, \\ h_1^{(1)} &= (k_1 + \bar{k}_1) e^{(\bar{k}_1 - i\xi_1)x + \Omega_1(t) - \gamma_1(t)}, \end{aligned} \quad (47)$$

bu yerda $\Omega_1(t)$ uzluksiz funksiya.

(46) va (47) tengliklarni inobatga olsak biz quyidagilarga ega bo‘lamiz

$$\begin{aligned}
f &= 1 + e^{\eta_1 + \eta_2 + a_{11}}, \\
g &= e^{\eta_1}, \\
p_1 &= e^{(k_1 + \bar{k}_1 - i\xi_1)x + \Omega_1(t)}, \\
h_1 &= (k_1 + \bar{k}_1)e^{(\bar{k}_1 - i\xi_1)x + \Omega_1(t) - \gamma_1(t)}.
\end{aligned} \tag{48}$$

(48) funksiyalar va (38) tenglamadan foydalanib $\Omega_1(t)$, $\gamma_1(t)$ funksiyalarni va k_1 konstantani topish mumkin

$$\begin{aligned}
\Omega_1(t) &= \ln \beta_1(t) + \frac{1}{2}(\bar{\gamma}_1(t) + a_{11}) + \gamma_1(t), \\
\gamma_1(t) &= -4i\bar{\xi}_1^2 t - 2 \int_0^t \bar{\beta}_1^2(\tau) d\tau + \gamma_1(0), \\
k_1 &= -2i\bar{\xi}_1.
\end{aligned} \tag{49}$$

(37), (48) va (49) tengliklarni inobatga olib biz (34)-(35) masalaning bir soliton yechimini yozib olamiz

$$\begin{aligned}
u(x,t) &= \frac{e^{-2i\bar{\xi}_1 x + \gamma_1(t)}}{1 + e^{(-2i\bar{\xi}_1 + 2i\xi_1)x + \gamma_1(t) + \bar{\gamma}_1(t) + a_{11}}}, \\
\varphi_{11}(x,t) &= \beta_1(t) \frac{e^{(-2i\bar{\xi}_1 + i\xi_1)x + \gamma_1(t) + \bar{\gamma}_1(t) + a_{11}}}{1 + e^{(-2i\bar{\xi}_1 + 2i\xi_1)x + \gamma_1(t) + \bar{\gamma}_1(t) + a_{11}}}, \\
\varphi_{21}(x,t) &= \beta_1(t) \frac{(-2i\bar{\xi}_1 + 2i\xi_1)e^{i\xi_1 x + \bar{\gamma}_1(t) + a_{11}}}{1 + e^{(-2i\bar{\xi}_1 + 2i\xi_1)x + \gamma_1(t) + \bar{\gamma}_1(t) + a_{11}}}.
\end{aligned} \tag{50}$$

Moslangan manbali nochiziqli Shredinger tenglamasining ikki soliton yechimini topish uchun f , g , p_j va h_j ($j=1,2$) funksiyalarni quyidagi ko'rinishda izlaymiz

$$\begin{aligned}
g &= \chi g^{(1)} + \chi^3 g^{(2)}, \quad f = 1 + \chi^2 f^{(1)} + \chi^4 f^{(2)}. \\
p_j &= \chi p_j^{(1)} + \chi^3 p_j^{(2)}, \quad h_j = h_j^{(1)}.
\end{aligned}$$

Yuqordagi jarayonni qo'llash orqali biz moslangan manbali nochiziqli Shredinger tenglamasining ikki soliton yechimini quyidagi ko'rinishda yozishimiz mumkin

$$u(x,t) = \frac{g^{(1)} + g^{(2)}}{1 + f^{(1)} + f^{(2)}}, \tag{51}$$

$$\varphi_{1j} = \frac{p^{(1)} + p^{(2)}}{1 + f^{(1)} + f^{(2)}}, \quad \varphi_{2j} = \frac{h^{(1)}}{1 + f^{(1)} + f^{(2)}}, \quad j = 1, 2.$$

Bunda

$$f^{(1)} = e^{\eta_1 + \bar{\eta}_1 + a_{11}} + e^{\eta_1 + \bar{\eta}_2 + a_{12}} + e^{\eta_2 + \bar{\eta}_1 + a_{21}} + e^{\eta_2 + \bar{\eta}_2 + a_{22}}, \quad g^{(1)} = e^{\eta_1} + e^{\eta_2}, \tag{52}$$

$$f^{(2)} = e^{\eta_1 + \bar{\eta}_1 + \eta_2 + \bar{\eta}_2 + r}, \quad g^{(2)} = e^{\eta_1 + \bar{\eta}_1 + \bar{\eta}_2 + \delta_1} + e^{\eta_1 + \bar{\eta}_2 + \eta_2 + \delta_2}, \tag{53}$$

$$\begin{aligned}
p_j^{(1)} &= \exp((k_1 + \bar{k}_1 - i\xi_j)x - \gamma_2(t) - \bar{\gamma}_2(t) + \gamma_1(t) + \bar{\gamma}_1(t) + \Omega_j(t) - r + a_{11}) + \\
&+ \exp((k_1 + \bar{k}_2 - i\xi_j)x - \gamma_1(t) - \bar{\gamma}_1(t) + \gamma_2(t) + \bar{\gamma}_2(t) + \Omega_j(t) - r + a_{12}) +
\end{aligned}$$

$$\begin{aligned}
& + \exp((k_2 + \bar{k}_1 - i\xi_j)x - \gamma_1(t) - \bar{\gamma}_2(t) + \bar{\gamma}_1(t) + \gamma_2(t) + \Omega_j(t) - r + a_{21}) + \\
& + \exp((k_2 + \bar{k}_2 - i\xi_j)x - \gamma_1(t) - \bar{\gamma}_1(t) + \gamma_2(t) + \bar{\gamma}_2(t) + \Omega_j(t) - r + a_{22}), \quad (54)
